

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

KARIMOVA MUQADDAS ABDISAMATOVNA

FOLKLOR-ETNOGRAFIK TOMOSHALAR REJISSURASINING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 792. 09:39 (575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the PhD Dissertation Abstract

Karimova Muqaddas Abdisamatovna

Folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari 3

Каримова Мукаддас Абдисаматовна

Особенности режиссуры фольклорно-этнографических
представлений 19

Karimova Mukaddas Abdisamatovna

Features of the direction of folklore-ethnographic performances 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

KARIMOVA MUQADDAS ABDISAMATOVNA

FOLKLOR-ETNOGRAFIK TOMOSHALAR REJISSURASINING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/San237 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarov Mamur Botashikovich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Qoraboyev Usmon Hosilovich
falsafa fanlari doktori, professor

Abdurasulov Shoxrux Abdinaimovich
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 2-iyun soat 10⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 15-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 15-maydagi 7-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy jabhalardagi o'zgarishlar tufayli tomosha san'atining xalqlar madaniy hayotida tutgan o'rni va ta'siri tobora ortib bormoqda. Xalqaro maydonda folklor-etnografik tomoshalar ma'naviyatga ta'sir o'tkazuvchi zarur badiiy vositalardan bo'lib, katta-yu kichikka birday estetik zavq ulashib, shu orqali xalq an'analari va qadriyatlarining keng targ'ibotiga xizmat qilish bilan bir qatorda ularning rejissurasidagi etnik an'analarni talqini bilan bog'liq ijodiy izlanishlarda, yangi shakldagi ko'rinishlarda ba'zi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Fan va texnika tobora rivojlanayotgan davrda folklor san'ati spetsifik xususiyatlari bilan mintaqalararo ijodiy tendensiyalarni o'zlashtiribgina qolmay, boshqa san'at turlari bilan sintezlashuvda yangi shakl va uslublarni kashf etayotganligi mazkur sohaning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Jahon san'atshunoslik ilmidagi folklor-etnografik tomoshalar rejissurasidagi izlanishlar nafaqat tadqiqot nuqtayi nazaridan, balki yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini shakllantiruvchi, ularning tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi amaliy jarayon sifatida ham atroflicha o'rganilmoqda. Shu jihatdan folklor-etnografik tomoshalarining jamiyat hayotidagi o'rnini yanada oshirish uchun sohaning ilmiy-nazariy hamda amaliy muammolari aniqlanmoqda va tadqiq etilmoqda. Folklor san'ati sinkretik san'at ekanligi va bunday ijod namunalarini rejissyorning yondashuvi orqali professional darajaga ko'tarish, tomoshalardagi ijrochilar mahoratini hamda badihago'ylikni rivojlantirish, ijodiy jamoalar repertuarini shakllantirish masalalari zarurat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston madaniy hayotida folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o'ziga xos innovatsion tendensiyalari joriy etilmoqda. "Bugungi kun nafasi, odamlarni o'ylantiradigan, hayajonga soladigan, jiddiy ijtimoiy muammolar aks etgan sahna asarlari yaratish teatr ijodkorlari oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi"¹. Bu vazifalarni amalga oshirishda xalqaro ijodiy aloqalar natijasida o'zlashtirilayotgan tajribalar, shakl va mazmun jihatidan milliy folklor-etnografik jamoalar ijodida yuz berayotgan yangilanishlar hamda folklor tomoshalari rejissurasidagi yangi talqin va yondashuvlarni o'rganish, bu jarayonda kuzatilayotgan muammolarni aniqlash va ular bo'yicha samarali yechimlar ustuvorlik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi 9-son "2018-2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / – Toshkent: Xalq so'zi, 2017-yil 4-avgust.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorij tadqiqotlarida mavzu bo'yicha folklor teatrlari va xalq tomosha san'ati faoliyatini o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, I.Davidova, A.Dupenko, S.Feoktistova, A.Kibardin, M.Litvinova, V.Pushkaryovning² tadqiqotlarida folklor teatrining an'anaviy va zamonaviy shakllari, folklor ijrosini teatrlashtirish, ularning etnomadaniy xususiyatlariga e'tibor qaratish haqida fikr yuritilgan.

MDH mamlakatlarida A.Avdeyev, M.Baxtin, A.Borovkov, M.Gavrilov, D.Genkin, V.Gusev, I.Ibragimov, M.Kogan, N.Likoshin, A.Mazayev, V.Veresayev, G.Snesarev, I.Sharoyev³ singari olimlar tomonidan folklor-etnografiya, urf-odat va an'analar hamda bayram tomoshalarining yoshlar tarbiyasiga estetik ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekiston san'atshunosligida M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, M.Tulyaxodjayeva, T.Yo'ldoshev, U.Qoraboyev, B.Sayfullayev, B.Shodiyev, M.Umarov, F.Ahmedov, F.Abduvohidov, B.Sangirov, J.Mamatqosimov⁴ kabi

² Давидова И. Театральность в фольклоре коренных народов Севера, Сибири и Дальнего Востока: Дисс. ... кан. искусств. наук. – Москва: МГУ, 2008. – 174 с.; Дупенко А. Организационно-педагогические основы использования ритуалов в современной празднично-обрядовой культуре: Дисс. ... кан. искусств. наук. – Москва: МГУ, 1999. – 175 с.; Феоктистова С. Женские образы русского фольклорного театра: Дисс. ... кан. искусств. наук. – Москва: МГУ, 2009. – 152 с.; Кибардин А. Театрализованные представления Петрограда 1919-1920-го годов: Становление режиссуры массовых зрелищ. Автореферат дисс. ... кан. искусств. наук. – Санкт-Петербург: Сп.ГИК, 2023. – 160 с.; Литвинова М. Массовые праздники и зрелища как культурный феномен: Дисс. ... кан. искусств. наук. – Белгород: МГУ, 2002. – 196 с.; Пушкирёв В. Культурный потенциал современного фольклорного театра. Автореф. дисс. ... кан. искусств. наук. – Москва: ФГБОУВПО, 2011. – 23 с.

³ Авдеев А. Происхождение театра. – Москва: Искусство, 1959. – 268 с.; Бахтин М. Литературно-критические статьи. – Москва: Искусство, 1986. – 537 с.; Боровков А. Дарбоз. – Ташкент: Искусство, 1928. – 198 с.; Гаврилов М. Кукольный театр Узбекистана. – Ташкент: Средазкнига, 1928. – 60 с.; Генкин Д. Организация и методика художественно-массовой работы. – Москва: Просвещение, 1987. – 138 с.; Гусев В. Русский фольклорный театр. Конец XVIII и начало XX века. – Ленинград: Искусство, 1979. – 237 с.; Ибрагимов И. Пять дней в Коканде // Туркистанские ведомости, 1872. № 20. – С. 2.; Коган М. Социальные функции искусства. – Ленинград: Искусство, 1978. – 268 с.; Ликошин Н. Пол жизни в Туркестане. – Петроград: Склад творчества, 1916. – 340 с.; Мазаев А. Праздник как социально-художественное явление. – Москва: Наука, 1978. – 265 с.; Вересаев В. К художественному оформлению быта. – Красный Новгород, 1926. №1. – 160 с.; Снесарев Г. Реликты домусульмански верований и обрядов у узбеков хорезма. – Москва: Наука, 1969. – 337 с.; Шароев И. Режиссура эстрады и массовых представлений. – Москва: Просвещение, 1979. – 462 с.

⁴ Rahmonov M. O'zbek teatri (qadimgi zamonlardan XVIII asrgacha). – Toshkent: Fan, 1981. – 287 b.; Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atlari. – Toshkent: San'at, 2007. – 216 b.; Qodirov M. Tomosha san'ati: o'tmishdan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1993. – 216 b.; Qodirov M. Bobur nafosati – Toshkent: Fan, 1994. – 87 b.; Tursunov T. Sahna va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 416 b.; Тулаходжаева М., Йулдашев Т. Узбекская драматургия на сцене театра (60-80 г.). – Ташкент: Фан, 1990. – 320 b.; Qoraboyev U. Badiiy-ommaviy tadbirlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – 248 b.; Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – 192 b.; Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 240 b.; Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 152 b.; Shodiyev B. Teatralashgan maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi: San. fan. dok. diss. – Toshkent, 2007. – 321 b.; Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 324 b.; Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – 304 b.; Abduvohidov F. Folklor va sahna san'ati // Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi. Ilmiy konferensiya to'plami. – Toshkent, 2021. – B. 104-109.; Sangirov B. O'zbek teatrida etnomadaniy an'analar talqini: San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 152 b.; Mamatqosimov J. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 388 b.

tadqiqotchilarning izlanishlarida ham mavzuning ma'lum jihatlarini qamrab olingan. Qolaversa, folklorshunos S.Yo'ldasheva, M.Jo'rayev, A.Ashirov, F.Karomatov, N.Qosimov, M.Murodova, S.Davlatov, O'.Toshmatov, G.Mardonova, M.Fayzullayeva, G'.Xudoyev, N.Turg'unova⁵ tadqiqotlari, monografiyalari, ilmiy maqolalarida mavzu bo'yicha umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Garchi, bugunga qadar shu kabi ilmiy izlanishlar doirasida mavzuning turli jihatlarini o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur dissertatsiyada folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari hamda ijrosi bilan bog'liq muammolar ilk bor tizimli ravishda tadqiq etildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A1-081-raqamli "XX-XXI asr boshlarida o'zbek xalqi san'atidagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy tahlil)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o'ziga xos xususiyatlarini teatrshunoslik kesimida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

folklor-etnografik tomoshalarining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish, folklor san'atini professional darajaga ko'tarishda rejissuraning o'ziga xos ahamiyatini ochib berish;

o'zbek folklor-etnografik tomoshalar orqali urf-odat, an'ana, milliy qadriyatlarni sahnalashtirishda mahalliy xususiyatlarning namoyon bo'lish darajasini asoslash;

folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining an'anaviy va zamonaviy tendensiyalarini aniqlash hamda milliy folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari, kelajak istiqbollariga oid takliflar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

o'zbek teatrlarida etnik an'analar talqiniga munosabat hamda milliy qadriyatlar aks etgan spektakllarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida folklor-etnografik jamoalar tomoshalari tanlangan.

Tadqiqot predmetini folklor-etnografik jamoalar repertuaridagi teatrlashgan tomoshalar rejissurasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, kuzatuv, suhbat va kompleks yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

folklor san'atidagi improvizatsiya, grotesk, dialektik va frazeologik spetsifik aspektlar sahnaviy va ijroviy imkoniyatlarni kengaytirishga ko'ra folklor-etnografik tomoshalarida tomoshabinni ishtirokchiga aylantiruvchi interaktiv xususiyat ekanligi dalillangan;

⁵ Yuldosheva S. Folklor-etnografik ansambllar. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 272 b.; Jo'rayev M. O'zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2008. – 204 b.; Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995. – 126 b.; Ashirov A. "Avesto"dan meros marosimlar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2011. – 168 b.; Karomatov F. O'zbek xalqi musiqa merosi. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 153 b.; Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008. – 192 b.; Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 109 b.; Davlatov S. An'ana va marosim. – Toshkent: Fan, 2009. – 120 b.; Davlatov S. Boychechak. – Toshkent: Fan, 2007. – 180 b.; Toshmatov O'. Folklor qo'shiqlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 135 b.; Mardonova G. Nur to'la uy. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 78 b.; Fayzullayeva M. Surxon vohasi aholisining taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlari (XX asr birinchi yarmi). Tarix fan. nom. diss. – Toshkent, 2010. – 148 b.; Xudoyev G'. Buxoro mumtoz musiqiy an'analari. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2024. – 184 b.; Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati. – Toshkent: Namangan, 2016. – 363 b.

an'anaviy teatr tomoshalarida korfarmonlar ijodidagi badihago'ylik, taqlid, muqallid, masxaraboz va qiziqchilik kabilar milliy folklor-etnografik tomoshalar rejissurasi genezisi va rivojida badiiy sinkretlilik va shartlilikiga ko'ra fundamental manba ekanligi aniqlangan;

milliy folklor-etnografik tomoshalar rejissurasidagi etnoregional komponentlar lokal xususiyatlarga ko'ra vazminlik va mahobatlilik (Toshkent-Farg'ona ijro yo'li), jo'shqinlik va shijoatlilik (Surxondaryo-Qashqadaryo ijro yo'li), mumtoz va maftunkorlik (Xorazm ijro yo'li), shiddat va keskinlik (Buxoro-Samarqand ijro yo'li) kabi lokal xususiyatlarning differensial va integral sintezi asosida janriy polixronik aspektlari isbotlangan;

folklor-etnografik tomoshalar rejissurasida etnik an'analar, urf-odat va marosimlarni teatrlashtirish jarayoni etnoregional ijro uslublarining sahnalashtirish trayektoriyasiga ko'ra funksional, struktual, intertekstual interpretatsiyaga egaligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sohaga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarida, folklor va teatr san'ati to'garaklarida qo'llash uchun o'quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Respublikadagi folklor-etnografik jamoalari repertuarini milliy qadriyatlar bilan boyitish, an'ana va marosimlarni teatrlashtirish orqali badiiy yuksaltirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, kuzatuv, suhbat va kompleks yondashuv usullari bilan asoslangani, folklor-etnografik tomoshalarining o'ziga xos rejissurasi tahlilida mahalliy va xorijiy tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlarga tayanilganligi, arxiv materiallari to'planganligi va ular asosida ishlab chiqilgan takliflar amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada berilgan tahliliy ma'lumotlar va yakuniy xulosalar orqali folklor-etnografik tomoshalarining metodologik imkoniyatlarini kengaytirib, kelajakda amalga oshiriladigan monografiyalar yaratishda va ilmiy anjumanlar tashkil etishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati folklor san'ati rejissurasi tarixiga yangi manbalar kiritishda, o'zbek xalq tomosha san'ati tarixi fanini o'qitishda, teatrshunos, san'atshunos, folklorshunos, sahna san'ati dramaturgiyasi bo'yicha kadrlar tayyorlashda, sahnalashtirilayotgan asarlarda folklor san'ati janrlaridan maqsadli foydalanishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

folklor san'atidagi improvizatsiya, grotesk, dialektik va frazeologik spetsifik aspektlar sahnaviy va ijroviy imkoniyatlarni kengaytirishga ko'ra folklor-etnografik tomoshalarida tomoshabinni ishtirokchiga aylantiruvchi interaktiv xususiyat ekanligiga oid xulosa va takliflardan Respublika musiqa va san'at kolleji "Folklor san'ati" kafedrasida qoshida tashkil qilingan "Gulshod" folklor-etnografik ansambli, O'ral Tansiqboyev nomidagi 8-son madaniyat markazi qoshidagi "O'zbekoyim" xalq havaskorlik folklor-etnografik ansambli, Buxoro shahri madaniyat bo'limiga qarashli

“Bobur” madaniyat va aholi dam olish markazi qoshida xizmat ko‘rsatuvchi “Mohi-Sitora” folklor-etnografik xalq ansambllari repertuarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 10-oktabrdagi 02-11-17-3253-son ma’lumotnomasi). Natijada, folklor-etnografik jamoalari repertuari badiiy-g‘oyaviy jihatdan takomillashtirilgan;

an’anaviy teatr tomoshalarida korfarmonlar ijodidagi badihago‘ylik, taqlid, muqallid, masxaraboz va qiziqchilik kabilar milliy folklor-etnografik tomoshalar rejissurasi genezisi va rivojida badiiy sinkretlilik va shartlilikiga ko‘ra fundamental manba ekanligiga oid xulosa va takliflardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanali “Ochiq namoyish” ko‘rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-fevraldagi 01-14/36-son ma’lumotnomasi). Natijada, sohaga oid muammolarni bartaraf etishning professional usullari ishlab chiqilgan;

milliy folklor-etnografik tomoshalar rejissurasidagi etnoregional komponentlar lokal xususiyatlarga ko‘ra vazminlik va mahobatlilik (Toshkent-Farg‘ona ijro yo‘li), jo‘shqinlik va shijoatlilik (Surxondaryo-Qashqadaryo ijro yo‘li), mumtoz va maftunkorlik (Xorazm ijro yo‘li), shiddat va keskinlik (Buxoro-Samarqand ijro yo‘li) kabi lokal xususiyatlarning differensial va integral sintezi asosida janriy polixronik aspektlari isbotlanishiga oid xulosa va takliflardan folklor-etnografik jamoalari repertuarining janriy diapazonini kengaytirish va boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2025-yil 26-martdagi 01-30/181-son ma’lumotnomasi). Natijada, muayyan hududda shakllangan folklor-etnografik ansambllarda milliy an‘analarning xususiyatlari, qo‘shiqni ijro etishning lokal-hududiy farqlari haqida bilim va ko‘nikmalar rivojlantirilgan;

folklor-etnografik tomoshalar rejissurasida etnik an‘analar, urf-odat va marosimlarni teatrlashtirish jarayoni etnoregional ijro uslublarining sahnalashtirish trayektoriyasiga ko‘ra funksional, struktual, intertekstual interpretatsiyaga egaligi dalillanganligiga oid xulosa va takliflardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanali “Ochiq namoyish” ko‘rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-fevraldagi 01-14/36-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Ochiq namoyish” ko‘rsatuvida taqdim etilgan spektakllar bo‘yicha chiqarilgan ilmiy xulosalar asosida folklor tomoshalarini sahnalashtirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy maqola, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta, jumladan xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dessertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot predmeti va obyekti aniqlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan maqolalar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Folklor-etnografik jamoalar faoliyatini ilmiy o'rganish borasida turli tadqiqotlar bajarilgan. Ularda folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining asosiy xususiyatlarini teatrshunoslik kesimida tadqiq etish va o'ziga xos jihatlarini yoritish masalalari asosiy maqsad qilib olingan.

Tadqiqotning I bobi **“Milliy folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining tarixiy va nazariy asoslari”** deb nomlanib, uch bo'limdan iborat. O'zbek xalqining etnik tarkibining serqatlamligi, tarixiy taraqqiyot yo'li, tomosha san'ati turlari, milliy rejissura shakllanishida xalq og'zaki ijodining o'rnini hamda qadimda korfarmon faoliyati haqidagi qarashlar, rivojlanish bosqichlari, yo'nalishning ilmiy-nazariy asoslari mavzuga oid tahlil qilingan.

Bobning **“Tadqiqotning nazariy asoslari”** nomli birinchi paragrafida ilmiy manbalarda badiiy so'z san'atining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohasi – folklor san'atining tarixiy ildizlari, folklor-etnografik tomoshalarining yuzaga kelishida marosimlar, diniy e'tiqodlar, xalq bayram va tomoshalari, xalqning turmush tarzi o'z ta'sirini o'tkazganligi to'g'risidagi ma'lumotlar sharhlangan. “Folklor” termini Uilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llanilganligi asoslangan, O'zbekistonda Hodi Zarif tomonidan 1932-yilda “folklor” atamasining qo'llanilishi va folklorshunoslarning ilmiy izlanishlari haqida so'z yuritilgan. Folklorshunoslar “folklor” atamasiga “sinkretik” atamasini qo'shib qo'llay boshlashi sabablari o'rganilgan. Xususan, qadimgi dunyo sayyohlari va tarixshunoslarning bizgacha yetib kelgan ilk marosimlarning nihoyatda sodda shakli, mehnat jarayonini ifodalovchi ilk qo'shiqlar, etnik madaniyatning asosiy manbalari genezisi, evolyutsion jarayonlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Rus teatrshunosligida folklor teatrlarini o'rganish borasida qator tadqiqotlar yaratilgani, ayni masalani maxsus o'rgangan A.Veselovskiy, S.Feoktistova, A.Dupenko, V.Pushkaryov, I.Davidova, A.Kibardinlarning tadqiqotlarida bayram va marosim madaniyatida marosimlardan foydalanishning tashkiliy-pedagogik asoslari, xususida so'z boradi. Ularda folklor teatrining an'anaviy va zamonaviy shakllari, folklori teatrlashtirishda innovatsion usullardan foydalanish, etnomadaniy xususiyatlariga e'tibor qaratish haqida ma'lumotlar berilgan.

Tomosha san'ati M.Qodirov tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan, tomosha san'ati turlari ilmiy asoslangan. Markaziy Osiyo bayramlari, an'anaviy teatr turlari, sahnaviy ijrolar haqida tarixiy faktlar keltirilgan. Yettinchi asrdan boshlab, “tomosha” san'atining Turkiston hududida qo'llanish doirasi haddan tashqari keng bo'lib, tomosha, ermak, zavqli mashg'ulotlar, badantarbiya va sportga aloqador sohalarni ham o'z ichiga olganligi, professor M.Qodirov tadqiqotida o'zbek xalqining tomosha san'atini o'rganishda uch davr ko'zga tashlanganligi yuqori malakali, tajriba va mahorat talab qiladigan san'at turlari istiqboli uchun xizmat qiladigan folklor-etnografik tomoshalarining tarixini hamda mavzuning nazariy asoslarini ilmiy o'rganishda dissertatsiyaning ilmiy asoslarini ta'minlovchi muhim manba sifatida xizmat qildi.

Shuningdek, ushbu bo‘limda XX asrning 20-yillarida Muhiddin Qoriyoqubov va Tamaraxonimlarning tashabbusi hamda boshchiligida o‘zbek etnografik ansambli va mashhur “Ko‘k ko‘ylak” ansambli, 1920-yillarda tuzilgan ansambllar hamda ishtirokchilarining aksariyati professional ijrochi bo‘lmagani, 1930–40-yillarga kelib, respublikamizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar tufayli folklor-etnografik ansambllarning faoliyati ma’lum darajada susayishi sabablari ilmiy tadqiq qilingan. 1960–70-yillarda san’atimizga mafkuraviy zug‘um o‘tkazilganligi, milliy istiqlol tufayli qadriyatlarimiz tiklanib, qadimiy va ezgu an’analar rivoj topayotgani asoslab berilgan.

Mustaqillik yillarida B.Shodiyevning xalq bayramlarini va tomoshalarini tadqiq etish bo‘yicha bajargan tadqiqotida teatrlashtirilgan maydon tomoshalarini rejissurasiga oid ilgari surilgan ilmiy qarashlar, xulosalaridan maqsadli foydalanildi.

Bobning **“Milliy rejissura asoslari shakllanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida xalq og‘zaki ijodi turlari elatlar orasidan chiqqan ijodkorlarning ishtirokidagi izlanishlarda – qabila turmush tarzi, geografik sharoiti, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib, amaliyotda sinallish jarayonida mukammallashib, sayqallanib, tobora badiiylashib hamda ommalashib borgan. Bunga xalq ijodining bizgacha yetib kelgan bir qator qadimiy namunalari: qoyatoshlarda, arxeologiya hamda arxitektura yodgorliklarida, uy-ro‘zg‘or buyumlarida, yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgani dalil bo‘la oladi. Namuna darajasiga ko‘tarilgan tomoshalar o‘z davrining mutafakkirlari ijodidagi lavhalarda izohlanganligi, musavvirilar tasvirlagan xalq ommaviy sayillari haqidagi qarashlar yoritilgan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bo‘lgan folklor namunalarini to‘plash tarixiga bebaho meros qoldirgan Mahmud Koshg‘ariy ijodini alohida ta’kidlagan holda “Devonu lug‘oti-t-turk” asari ustida 15 yil tinimsiz ishlagani hamda uzoq yillar yurtma-yurt kezib manba to‘plagani, devon yozish ustidagi harakatlari izohlari yoritilgan. Koshg‘ariy jamlagan xalq og‘zaki ijodiga tegishli mehnat qo‘shiqlari: mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar; kishilarni mehnatga bo‘lgan munosabati; mehnat mashaqqatlarini yengishga qaratilganligi; hordiq chiqarishga, yoshlarni mehnatga ko‘niktirishga va o‘rgatishga yordam berayotganligi hamda marosim qo‘shiqlari, marsiyalari o‘zbek folklorida keng tarqalganligi asoslangan.

Shuningdek, Amir Temur o‘z safarlari haqida baxshilarga doston qilib kuylashni topshirganligi, To‘xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor. Mashhur dostonlar vatanparvarlikni va qahramonlikni ulug‘lagani uchun ahamiyatli bo‘lib, XIX asr oxirlarida Rossiyadan kelgan elshunoslar xalq orasida yurib, badiiy ijod namunalarini yozib ola boshlagani, natijada ayrim shaxslar tomonidan yozma adabiyotga yaqin ruhda qayta ishlash yoki yozma namunalarini “folklorlashtirish” jarayoni kuchaytirilgani haqida dalillar keltirilgan.

XIX asr o‘rtalarida turli diplomatik missiyalar va harbiy yurishlar chog‘ida etnograflarning xalq an’anaviy tomoshalarini o‘rganishi, mahalliy matbuotda aholining ko‘plab tomoshalarini, ommaviy marosimlari, bayram hamda sayillari haqida maqolalar chop etilganligi, maqolalarda – Navro‘z, Mehrjon, Ro‘za va Ramazon hayiti bayram doirasida ko‘rsatilgan turli maydon tomoshalarini haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Ular rejissura san’ati ko‘magida, rejissyorlar boshqaruvida, yakka yoki guruhli ijrolarda badiiy yaxlit shaklga ega bo‘lgan. Xalq hayotidagi tarixiy o‘zgarishlarga ko‘ra ham,

ijrolar o'zgara borgani, qaysidir janrlar yoki namunalar butunlay yo'qolgani, o'rniga yangilari yuzaga kelgani uchun ham milliy folklorda har bir davr o'z izini qoldirgani izohlangan.

XX asrga kelib, o'zbek folklorida ijodkorlarning hamda ular jamlagan ijrochilarning kasbiylashuvi nisbatan rivojlana boshlagani, bu kasbiylashuv dramaturg, rejissyor, aktyor, administrator kabi ijodkorlardan iborat ekanligi to'g'risida o'rganilgan. Milliy rejissura asoslari shakllanishida xalq og'zaki ijodining ta'siri asoslangan.

An'anaviy xalq teatrining shakllanishiga va taraqqiyotiga milliy xalq og'zaki ijodiga asoslangan tomoshalar turtki bo'lgan. Folklorning dastlabki namunalari paydo bo'lishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari, dunyoqarashlari, urf-odat hamda marosimlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Yuqorida nomlari keltirilgan manbalar mavzuning tarixiy va nazariy asoslari mavjudligiga dalildir.

Bobning **“Korfarmonlar milliy folklor-etnografik tomoshalarining tashkilotchisi va rejissyori sifatida”** deb nomlangan uchinchi paragrafida tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, korfarmon qadimda o'zbek an'anaviy teatrining rahbari, (rejissyor) boshqaruvchisi bo'lgan. U jamoaning yetakchi aktyori ham hisoblangani, korfarmonlar shahar maydonlarida, sayilgohlarda o'tadigan tomoshalarni, teatrlashgan tadbirlarni, urf-odat marosimlarini hamda musobaqalarni uyushtirgani va katta tajriba orttirgani dalillangan.

Xalq og'zaki ijodini va ular ijrosini yaxshi bilgan korfarmonlar faoliyati professional milliy rejissura san'atining yuzaga kelishi va rivojida katta o'rin tutganligi o'rganilgan hamda korfarmon aynan boshqaruvchi rejissyor ekanligi alohida ta'kidlangan. Chunki tomoshaning ta'sirchanligi oshishida korfarmon ishtiroki muhim bo'lgan. Masalan, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniyy yohud javonmardlik tariqati” risolasida o'yin va tomoshalarning ayrim toifalari xususida fikr yuritiladi. Muallif o'z risolasiga tasavvufning bir oqimi bo'lmish javonmardlik tariqati qoidalari va g'oyalarini yoritilganligini anglatadigan tomoshalarnigina kiritadi. Uning 5 fasl va 13 qismni o'z ichiga olgan 6-bobi to'liq holda ma'raka matnlariga, tomosha ko'rsatgan qissaxonlar, maddohlar, pahlavonlar, dorbozlar, qo'g'irchoqbozlar, soqqabozlar, kosa o'ynovchilarga bag'ishlanadi.

Akademik M.Rahmonov Turkiston o'lkasidagi an'anaviy teatr masalalariga to'xtalganda asosan, Farg'ona vodiysi materiallariga tayangan. U 1958-1965-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlarini ekspeditsiya yo'li bilan qishloqma-qishloq, tumanma-tuman o'rganib chiqishi va ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritishi natijasida sobiq Buxoro amirligi an'anaviy teatri haqidagi ma'lumotlar tiklangani yoritilgan.

O'zbekistonda tomosha san'ati turlari asosida nishonlanadigan bayramlar tarixini jiddiy ilmiy tadqiq etish XX asrda boshlanganligi, dastlabki davrlarda etnograflar, folklorshunoslar, o'lkashunoslar o'rnak ko'rsatib, tomosha san'ati turlari namunalari yozib olish va ilmiy o'rganishga kirishganligi haqida hamda ilk bor folklor tomoshalarini tashkil qilgan korfarmonlar, ya'ni rejissyorlar haqida fikrlar tahlil qilingan. Antik davrlardan, o'rta asrlardan o'tib, XX asr boshigacha yetib kelgan, turli davrlarda yaratilib, an'anaviy tomosha madaniyati qatlamlaridan o'rin olgan bunday teatrlashgan tomoshalar, marosimlar takomillashgani A.Troiskaya, M.Rahmonov, M.Qodirov, U.Qoraboyevlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Zokir Eshon (Qo‘qon), To‘la masxara (Buxoro), Mizrob masxara (Shahrisabz) kabi korfarmonlar hamda qo‘qon saroyida xizmat qilgan truppa aktyorlari va ularning ustozlari aniqlangan. O‘zbek an‘anaviy teatrining yirik namoyandasi Yusufjon qiziq Shakarjonov ham iste‘dodli korfarmon bo‘lgan, 1881-1888-yillarda Zokirjon qiziq boshliq qo‘qonliklar to‘dasida bevosita Sa‘di Maxsumdan ta‘lim olgani o‘rganilgan.

II bob **“Folklor-etnografik tomoshalarda rejissura san’atining ahamiyati”** deb nomlanib, u ham uch bo‘limdan iborat. Ushbu bobda tomosha rejissurasi, professional milliy rejissura san’atining yuzaga kelishi, hududiy o‘ziga xosligi, tomosha san’ati turlari haqidagi ma‘lumotlar, xalq tomosha san’ati, an‘anaviy teatr turlari, sahnaviy ijrolar, tomoshalar badiiyligini oshirishda rejissura san’atining ahamiyati o‘rganilgan.

Bobning birinchi paragrafi **“O‘zbek folklor-etnografik jamoalar rejissurasida hududiy o‘ziga xoslik masalalari”** deb nomlangan. Folklor-etnografik tomoshalarini yuqori saviyada tashkil etish, bir hududni ikkinchisidan ajratib turgan urf-odatini, o‘ziga xos shevasini, yashash tarzini, liboslari hamda raqs harakatlaridagi farqni folklor jamoasi rejissyori yaxshi bilishi zarurligi haqidagi qarashlar tahlil qilingan.

To‘qson to‘qqiz urug‘ va qabilalar birlashmasidan tashkil topgan xalqlarning respublikamiz hududida joylashish tarziga qarab folklor ijrosida ma‘lum darajada o‘ziga xoslik mavjudligi, o‘zbek xalq ijodining janrlari, ular bilan bog‘liq an‘analari, marosimlar va ularga aloqador bo‘lmagan ko‘rinishlari haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish uchun har bir lokal hududning o‘ziga xosligi alohida-alohida o‘rganilishi lozimligi ta‘kidlangan. Hududiy o‘ziga xoslikni o‘rganishlar asosida u yoki bu jamoaga xos folklor asarlari jamlanishi, erishilgan natijalar va materialning umumxalq miqyosida tutgan o‘rni aniqlandi. Shuning uchun hududiy marosimlar folklorining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish zarurati dolzarb masala sifatida belgilandi. Bunda U.Qoraboyev, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, S.Yo‘ldosheva, M.Murodova, S.Davlatovning tadqiqotlaridan tegishli xulosalar olindi.

Milliy folklor-etnografik tomoshalarning hududiy o‘ziga xosligi Toshkent-Farg‘ona lokal uslubiga mansub **“Qurama”** folklor-etnografik xalq jamoasi misolida hamda Buxoroning **“Mohi Sitora”** folklor-etnografik ansambli, Samarqandning **“Chavqi”** nomli folklor-etnografik jamoalari misolida yoritilgan. Surxondaryo-Qashqadaryo lokal-uslubini **“Boysun”** folklor-etnografik ansambli repertuari misolida va Xorazm **“Orazibon”** folklor-etnografik ansamblining lokal uslubiga xos ifoda vositalaridagi farqlar arxiv materiallari asosida aniqlandi.

Hududiy variantliliklarni ijro qiladigan folklor-etnografik ansambllari u yoki bu viloyatning qo‘shiqchilik an‘anasiga xos boy merosidan foydalanib, repertuar yaratish jarayoniga ijodiy yondashib o‘ziga xos faoliyat yuritishi, folklor san’atining asosiy talablari bo‘lgan badihago‘ylik, hozirjavoblik, variantlilik xususiyatlarini ham inobatga olishi lozimligi isbotlandi.

Muayyan hududda shakllangan milliy an‘analarning xususiyatlari, badiiy ifodaning sevimli vositalari mavjudligi, qo‘shiqni ijro etishning lokal-hududiy farqlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Xalq qo‘shiqlarining ijro usuli va matniy tuzilishiga ko‘ra, har bir viloyatniki o‘ziga xos tarzda bir-biridan farqlanadi. Ammo, ularning maqsadi bitta – xalqning orzu-umidlarini, armon-istaklarini izhor etishdir. Improvizatsiya – darhol hozirjavob bo‘lish va badihago‘ylik san’ati xalq og‘zaki ijodining badiiy xazinasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi dalillandi.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Folklor-etnografik jamoalar repertuarining badiiyligini oshirishda rejissuraning ahamiyati”** deb nomlangan. Folklor-etnografik tomoshalar rejissyori o‘zining ijodkorlik qudratini, ijodiy jamoa a‘zolarining faqat o‘ziga xosligini namoyish eta olishi, rejissyor ijodiga nisbatan folklor jamoasi a‘zolarining ishonchi, birdamligi natijasidagi sog‘lom ijodiy muhitni yuzaga keltirishi lozimligi misollar asosida yoritildi.

Tomosha san‘atining barcha turlarida g‘oyaviy ta’sirchanlikni oshirish, to‘laqonli badiiy asar yaratish, uni namuna darajasida xalqqa havola qilish rejissyordan kasbiy bilim, badiiy saviya va mahorat talab qilinishi ilmiy asoslandi. Folklor tomoshalari rejissurasida: ijrodagi ifoda vositalaridan to‘g‘ri foydalanish; tomoshaga taalluqli barcha elementlarni ijodiy tashkil etish; garmonik jihatdan badiiy yaxlit asarni vujudga keltirish; folklor tomoshasining sahnaviy talqiniga rejissyor o‘zining badiiy tasavvuri hamda ijodiy jamoaning barcha qatnashchilari qobiliyatidan to‘g‘ri foydalanish natijasida erishishi mumkinligi alohida ta’kidlandi.

Repertuar folklor ansamblining g‘oyaviy-badiiy saviyasi va uning professional ijodiy mahoratini aniqlab beradigan ko‘zgu ekanligi, shuning uchun repertuarga kiritiladigan asarning badiiy jihatiga, g‘oyaviyligiga mavzuning dolzarbligiga, qo‘shiqning xalqchilligiga alohida ahamiyat berish talab qilinadi. Ijodiy jamoa nufuziga, uning tarbiyaviy salohiyatiga, ijrochilarning mahoratiga, ular san‘atidan bahramand bo‘luvchi auditoriya muhitiga e’tibor berish repertuar shakllanishining asosiy tamoyillari ekanligi dalillangan. Shuning uchun ijodiy jamoa rejissyori o‘zbek folklorining xilma-xil namunalarini bilishi talab qilinadi.

O‘zbekistonda nishonlanayotgan milliy bayramlar hamda an’anaviy xalq sayillarida folklor-etnografik jamoalarning ishtiroki turli tomoshalardagi badihago‘ylikka asoslangan teatrlashgan tadbirdagi ijrosi va ularning takomillashuvida rejissyor talqinining ahamiyati asoslangan.

Rejissyorlar talqinida steriotiplilik, birxillilik, shtampli qaytariq kabi yuzakiliklar, bir xil nomlarni va jamoalar ijrosini qayta tanlash, namoyish qilinadigan repertuar mavzusining dolzarbligi chuqur tahlil qilinmayotgani va ularga yechim izlash masalasi tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi, uning g‘oyaviyligi va tomoshaviyligi hisobga olinmayotgan holatlar, folklor dasturi ijrochilari bilan tomoshabin o‘rtasidagi badihago‘ylikka asoslangan jonli muloqotni chegaralanishi kabi kamchiliklar sababi tadbir rejissurasi bilan bog‘liq masala ekanligiga e’tibor qaratilgan.

Teatrlashtirilgan folklor tomoshalarining tomoshaviyligini oshirish uchun qo‘llaniladigan rejissuraning ta’sirchan ifoda vositalari inobatga olinishi lozimligi ta’kidlangan.

Bobning uchinchi paragrafi **“Teatrlashtirilgan tomoshalar va spektakllarda folklor janrlaridan foydalanish masalalari”** deb nomlangan. Folklor dasturlaridagi g‘oyalar asrlar davomida insonni shaxs sifatidagi kamoloti, uning orzulari va rivojining asosiy ifodasi bo‘lib kelganligi, xalqimizning an’ana, marosim va folkloridagi g‘oyalar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligi bilan ahamiyatligi asoslangan. Spektakllardagi milliy folklor ijrosida ta’sirchan vositalarni qo‘llash, rejissyorning talqinida folklorning o‘ziga xosligini saqlab qolish, dolzarb mavzuga folkloridagi g‘oyani uyg‘unlashtirib, teatrlashtirilgan harakatiga asos bo‘lishi alohida o‘rganildi.

Xalq ijodiyotining dastlabki namunalari retual, mavsumiy va oilaviy-maishiy folklor marosimlari mavjud spektakllar sahnalashtirilganda ijrochilarning an’anaviy raqs

va badiiy matnni bilishi o'zbek teatr san'atining etnomadaniy asoslarini belgilab berishi aniqlandi. Emotsional ta'sir qiluvchi teatrlashtirilgan tomoshalarda xalq an'analari jamoaviy ijrosi hamda uning milliy g'oyasi rejissuraga hamda musiqaga poetik asos bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi ma'no kashf etuvchi an'anaviy marosim ijrosi hamda ijrochilar mahorati namoyon bo'lishi muhim ekanligi dalillandi.

Respublikamiz teatr sahnasidagi spektakllarda folklor janrlaridan foydalanish sohaning rejissurasi takomillashishiga yordam berishi, xalq an'analari va folklor janrlaridan foydalanish masalalarini amaliy jihatdan respublikamizning barcha hududlaridagi teatrlarda qo'llash lozimligi aniqlandi.

O'zbek xalqiga xos etnik xarakter namoyon bo'lgan spektakllarga tomoshabinda ma'naviy ehtiyoj paydo bo'lganligi sabab, xalqning etnomadaniyati milliy teatr san'atining nafaqat tur va janrlarining shakllanishiga, balki milliy folklor xususiyatlari mezonlari belgilanishiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatganligi ilmiy asoslandi.

Respublikamiz teatrlarida sahnalashtirilgan spektakllar teatr tarixida etnik an'analarga bag'ishlangan asarlari bilan alohida o'rin egallagan. Dramaturg E.Xushvaqto'vning O'zbek Milliy akademik drama teatri talqinidagi "Chimildiq" yoki "Qirmizi olma" spektakli, "Afandining besh xotini" (rejissyor M.Azimov, muallif I.Sodiqov, 1991), X.Xursandovning "Kampir topaymi, dadajon?" asari (rejissyor N.Pardayev, 1998) Mannon Uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyat drama teatrida, dramaturg S.Abdullayevning "Alpomish" (H.Olimjon nomidagi Samarqand viloyat musiqali drama teatri, rejissyor N.Otaboyev, 1991) spektakllari tahlili mavzuga oid masalalarni oydinlashtirishga asos bo'ldi.

III bob **"Zamonaviy milliy folklor-etnografik tomoshalarining istiqboli"** deb nomlangan. Zamonaviy san'at turlari ijodkorlardan izlanuvchanlikni, tomoshabinlarning diqqatini jalb qila oladigan mavzularni talab qilishi, folklor festivallarining namoyishi, so'nggi yillarda o'tkazilayotgan bayram va tomoshalarda rejissyorlarning o'rni benihoya katta bo'lib, soha istiqbolini belgilashda ulardan ham ijodiy, ham innovatsion uslublardan foydalanish talab qilinayotgani amaliyotdagi jarayonlar asosida tahlil qilindi.

Bobning birinchi paragrafi **"Folklor festivallari – milliy an'analar targ'ibotchisi sifatida"** deb nomlangan.

